

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘MINOVA GUYOXON ALIDJONOVNA

**DALACHOY VA DO‘LANA O‘SIMLIKLARI ASOSIDA XALQ
TABOBATI UCHUN YANGI TOVARLAR OLISH VA ULARNI
SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41-Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата Диссертации доктора химических наук (DSc)
Contents of dissertation abstract of Doctor of Chemical Sciences(DSc)

Mo‘minova Guyoxon Alidjonovna

Dalachoy va do‘lana o‘simliklari asosida xalq tabobati uchun yangi tovarlar olish va ularni sinflash..... 3

Муминова Гуёхон Алиджоновна

Получение и классификация новых препаратов для народной медицины на основе растений зверобоя и боярышника..... 29

Mominova Guyoxon Alidjonovna

Preparation and classification of new drugs for traditional medicine based on hypericum and hawthorn plants. 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ 60
List of published works.....

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘MINOVA GUYOXON ALIDJONOVNA

**DALACHOY VA DO‘LANA O‘SIMLIKLARI ASOSIDA XALQ
TABOBATI UCHUN YANGI TOVARLAR OLISH VA ULARNI
SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41-Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/K178 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.adu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarov Ibrohim Rahmonovich

kimyo fanlari doktori, professor

Mamatova Iroda Yusupovna

kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Shavkat Vohidovich

kimyo fanlari doktori, professor

Abdug‘aniyev Baxtiyorjon Yormaxamatovich

kimyo fanlari doktori, dotsent

Ismoilov Mo‘minjon Yusupovich

kimyo fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko‘cha. 129. Tel.: (99874)223 88 30, faks: (99874) 223 84 33

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko‘ch. 129. Tel.: (99874) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) e-mail: agsu_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil _____dagi № ___ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.M.Kirgizov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

M.M.Mo‘minjonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

M.M.Xojimatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika sohalari jadal rivojlanib borayotganligiga qaramay qandli diabet kasalligini davolashda qo'llaniladigan, samarali va zararsiz dori vositasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, mahalliy dorivor o'simliklar yordamida sintetik dorilarga nisbatan havfsiz bo'lgan, yondosh ta'sirlarga ega bo'lmagan, qandli diabetni samarali davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy biologik faol birikmalar sifatida qo'llanilmoqda. Shuning uchun ham, bunday oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibi va qandli diabetda organizmga ta'sir mexanizmini aniqlash, hamda xalq tabobati amaliyotiga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda dorivor o'simliklar asosida qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy, ekologik toza, immunitetni oshiruvchi hamda ayrim sintetik preparatlarni o'rni bosuvchi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, do'lana, dalachoy, suli, igir kabi mahalliy o'simliklar qismlarining kimyoviy tarkibini zamonaviy usullar yordamida aniqlash, ular asosida endokrinologik kasalliklar, jumladan, qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish, ularning kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlash, hamda ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha yangi tovar kod raqamlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda mahalliy o'simliklar asosida qandli diabet kasalligini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo'lgan yangi oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish bo'yicha muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, dalachoy va do'lana alkaloidlari va flavonoidlari asosida inson organizmi uchun foydali birikmalar saqlagan, turli kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatini namoyon qiluvchi birikmalar saqlagan, organizm immunitetini ko'taruvchi, bezarar, tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalarini o'rganish hamda TIF TN bo'yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 7 noyabrdagi PQ-5229-son "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda 2018-yil 25-oktyabrdagi "O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3983-son, 2018-yil 17-yanvardagi "Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo'lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3479-son Qarorlari, 2019-yil 10-apreldagi "Respublikamizda 2019-2021 yillarda farmasevtika sohasini jadal rivojlantirishning keyingi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5707-son Farmoni, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor o'ltkazillariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor o'ltkaziliga muvofiq ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi²

Dorivor o'simliklardan dalachoy va do'lana o'simliklari asosida davolovchi vositalar ishlab chiqishga, xususan qandli diabetni davolashda qo'llaniladigan xom ashyolar yaratishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida, jumladan University of Zagreb (Croatia), Department of Traditional Chinese Medicine and Natural Drug Research, College of Pharmaceutical Science, Zhejiang University, Hangzhou, (China), Shaanxi University of Technology, Hanzhong (China), Liaoning University of Traditional Chinese Medicine, Dalian, Liaoning (China), University of Munich, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry (Germaniya), Liaoning University of Traditional Chinese Medicine, (China), Department of Pharmacy, Istanbul University (Turkiya), Departamento de Tecnología de los Alimentos, Universitat Politècnica de València (Ispaniya), Centre for Pharmacognosy and Phytotherapy, School of Pharmacy, University of London (Great Britain), School of Chemical Sciences National Institute of Science Education and Research (Hindiston), School of life science Southwest university (Xitoy) olib borilmoqda.

Dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash va qayta ishlash tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, shifobaxsh o'simliklar asosida dorivor birikmalar olingan (Technische Universität Chemnitz, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry Germaniya); dorivor o'simlik navlari tarkibidagi makro- va mikroelementlarning miqdorini aniqlash usullari ishlab chiqilgan (Dipartimento di Chimica Industriale "Toso Montanari", Università di Bologna, Italiya); shifobaxsh o'simliklar asosida mikroelementlarga boy tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari olingan (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Polsha); tarkibida tabiiy biologik faol birikmalar saqlagan o'simlik ekstraktlari bilan oziq-ovqat mahsulotlarini boyitish texnologiyasi yaratilgan (Department of Inorganic Chemistry, Faculty of Pharmacy, University of Medicine and Pharmacy, Ruminya); Antivirus ta'sirga ega birikmalarni o'simliklardan ajratib olish usullari ishlab chiqilgan (State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing University

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.chairs-chaire.gc.ca/> ;<https://www.ulaval.ca/en>; <https://tulane.edu/> ; <https://www.iu.de/> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan

(Xitoy); ayrim mahalliy o'simlik navlari tarkibidagi birikmalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O'simlik moddalar kimyosi instituti, O'zbekiston).

Dunyoda shifobaxsh o'simliklar tarkibidagi makro- va mikroelementlar, alkaloidlar, flavonoidlar, vitaminlarni aniqlash asosida inson organizmidagi turli kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega tabiiy preparatlar ishlab chiqish, hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha qator ustivor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, dorivor o'simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olish; olingan birikmalarning tarkibi va tuzilishini fizik-kimyoviy metodlar yordamida aniqlash, ularning biologik faolligi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash; dorivor o'simlik tarkibidagi qandli diabetni davolash xususiyatiga ega bo'lgan flavonoidlarni aniqlash va ajratib olish; dorivor o'simliklar ekstraktlari yordamida qandli diabet kasalligini oldini olish va davolash; o'simliklarning kimyoviy tarkibi va faolliklari asosida tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari olish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dorivor o'simliklardan dalachoy va do'lana o'simliklarining dorivorlik xususiyatlari va tarkibidagi biologik faol moddalari o'rganish doirasida ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, do'lana (Hawthorn) ning diabetga qarshi, antioksidant, gipolipidemik, yallig'lanishga qarshi xususiyatlarini Xiao H., Rugang Z., L.F.Huang, (H.Perforatum) dalachoy - ustida Elena R., Penjweini R., va boshqalar, antidiabetik, gipolipidemik, saratonga qarshi faolligini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Igir (Acorus calamus) o'simligini - Liu Y.X., Daoming B, Loying, R., M. Devaki va boshqalar diabetga qarshi, antigipertenziv, yallig'lanishga qarshi, antioksidant va neyroprotektiv xususiyatlarini o'rganish ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shu bilan birga Avena sativa (Suli) - o'simligining antioksidant xususiyatlarini Darzian R., Storz M.A., diabetga qarshi faolliklari ustida Storz M.A., Hend F.A., Bozbulut R., va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Kashnich (Coriandrum sativum L.)ni gipolipidemik, gipoglikemik va boshqa xususiyatlari Abderrahmane A., Mechchate H., kabi chet el olimlari tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda mahalliy dalachoy va do'lana o'simliklari asosida qandli diabet kasalligini oldini olish va davolashda qo'llaniladigan samarali, salbiy ta'sirlardan holi bo'lgan, bezarar, tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqot qandli diabet kasalligini davolashda qo'llaniladigan dalachoy va do'lana o'simliklari asosida olingan oziq-ovqat qo'shilmalari va ular tarkibiga kiruvchi biologik faol moddalarni aniqlash, ularning ta'sir mexanizmlarini o'rganish va kimyoviy tarkibi asosida tovar kodlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xalq xo'jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy dalachoy va do'lana o'simliklari asosida qandli diabet kasalligini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo'lgan biologik

faol moddalar saqlagan oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish, ularni kasallikni davolashdagi samarali ta'sirini aniqlash va TIF TN bo'yicha sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibiga kiruvchi dalachoy, do'lana va ba'zi boshqa dorivor o'simliklarning ekstraktlarida suvda eriydigan vitaminlar miqdorini aniqlash;

mahalliy dalachoy, do'lana va boshqa ba'zi dorivor o'simliklarning antioksidant va antiradikal faolligini o'rganish orqali qandli diabetni davolash xususiyatiga ega bo'lgan "As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shimchalarini yaratish uchun optimal nisbatni tanlash;

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibiga kiruvchi dalachoy, do'lana va boshqa ba'zi dorivor o'simliklarning ekstraktlarida flavonoidlar miqdorini aniqlash;

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibiga kiruvchi dalachoy, do'lana va boshqa ba'zi dorivor o'simliklarning ekstraktlarida makro va mikroelementlar miqdorini aniqlash;

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibiga kiruvchi dalachoy, do'lana va boshqa ba'zi dorivor o'simliklar ekstraktining aminokislotalar tarkibini aniqlash;

Alloksanli qandli diabet modelida “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalarining biokimyoviy ko'rsatkichlarga samarali ta'sirini tahlil qilish;

Qandli diabet bemorlarda “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalarining terapevtik ta'sirini aniqlash va isbotlash;

Alloksanli qandli diabet modelida “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalarining jigar va me'da osti bezi morfologik ko'rsatkichlariga samarali ta'sirini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida dalachoy, do'lana, igir, arpa, kashnich o'simliklari, “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalari, tajriba hayvonlari, qandli bilan kasallangan bemorlar olingan.

Tadqiqotning predmetini sifatida dalachoy, do'lana, igir, suli, kashnich o'simliklari ekstraktlarining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari asosida “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish va qandli diabet kasalligiga qarshi faolligini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishida yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, differentsial sentrifuga, fotoelektrokolorimetriya, spektrofotometriya, biologik faolligini o'rganish, TIF TN bo'yicha sinflash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy dalachoy, do'lana va ayrim dorivor o'simliklarning flavonoidlar, suvda eruvchi vitaminlar, aminokislotalar va elementlar tarkibi bo'yicha qandli diabet bilan kasallangan bemorlar uchun eng maqbul tarkibga egaligi isbotlangan;

in vitro sharoitda turli massa nisbatlarda olingan mahalliy igir, dalachoy, do'lana dorivor o'simliklari aralashmasining antioksidantlik faolligi spektrofotometrik usulda aniqlanganda, ularning mos ravishda 15:70:15 massa

nisbatdagi aralashmasi boshqa aralashmalarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi isbotlangan;

spektrofotometrik usul yordamida turli massa nisbatlarda olingan mahalliy igir, dalachoy, do'lana dorivor o'simliklari aralashmasining antiradikallik faolligi aniqlanganda, ularning mos ravishda 1:1:2 massa nisbatdagi aralashmasi boshqa aralashmalarga nisbatan eng yuqori antiradikallikka ega ekanligi isbotlangan;

dorivor o'simliklar asosida ishlab chiqilgan "As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi 5 ta makroelementlar va 56 ta mikroelementlar miqdori induktiv bog'langan plazmali optik emission spektrofotometr yordamida aniqlangan;

mahalliy dalachoy poyasi, guli, kashnich urug'i, igir, do'lana, suli dorivor o'simliklari tarkibidagi solidrozid, rutin, kversetin, digidrokversetin, lyuteonin, gall kislotasi, rozavin polifenollarining miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida aniqlangan;

"As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi sistin, sistein, fenilalanin, tirozin, treonin kabi almashinadigan va almashinmaydigan 20 xil aminokislotalar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida aniqlangan;

"As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalarining o'tkir zaharlilik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan biokimyoviy tadqiqotlar natijasida, ushbu oziq-ovqat qo'shilmalari zaharsiz birikmalar sinfi (6-sinf)ga mansubligi, sintetik dori vositasiga nisbatan zararsiz va foydali ekanligi isbotlangan;

hayvonlarda o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida "As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalarining gepatoprotektor va regenerativ xususiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy igir, dalachoy poyasi va do'lana o'simliklari asosida qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan yangi "As-GAM" nomli tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqilgan;

suli, kashnich urug'i, dalachoy guli asosida gepatoprotektor, regenerativ xususiyatlarga ega bo'lgan yangi "Shifo" nomli tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqilgan;

"As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalari kimyoviy tarkibi asosida sinflanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiya ishida "As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalarining o'simlik ekstraktlari tarkibi element analiz, differensial sentrifuga, spektrofotometriya, fotoelektrokolorimetriya va boshqa usullar asosida tarkibi va tuzilishi aniqlanganligi, toksiklik xususiyatlari tasdiqlanganligi, ularning biologik faolliklari, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari matematik-statistik tahlil qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, amaliy natijalarining vakolatli davlat organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy dalachoy poyasi, guli, kashnich urug‘i, igir, do‘lana, suli dorivor o‘simliklari, shuningdek, “As-GAM”, Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi makro- va mikroelementlar, polifenollar, aminokislotalar miqdori, hamda mazkur oziq-ovqat qo‘shilmalarining antioksidantlik va antiradikallik faolliklari, gepatoprotektor va regenerativ xususiyatlari zamonaviy usullar yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy dalachoy poyasi, guli, kashnich urug‘i, igir, do‘lana, suli dorivor o‘simliklari asosida qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan yangi “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratilganligi, hamda ushbu oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun tashkilot standarti, texnologik yo‘riqnoma va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Shifo” va “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmalari va ulardan ajratib olingan moddalarning kimyoviy tarkibi va tuzilishi asosida sinflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalarini “Oltin vodiy tabiati MCHJ” da ishlab chiqarish uchun tashkilot standarti (TS 305433003-01:2023 va TS23424257-01:2020), texnologik yo‘riqnoma (TY 305433003-01:2023 va TY 23424257-01:2020) ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining 2023 yil 11 oktabrdagi 31-8/1606-son ma’lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil, 2 oktyabrdagi №06.8/1447-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, qandli diabetga qarshi xususiyatiga ega “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalarining kukun shaklini ishlab chiqarish imkonini bergan.

qandli diabet kasalligini davolash hamda oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsatnoma olingan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2022 yil 29 iyuldagi №001397-sonli ruxsatnomasi, “Uz-Test” DUKning 2020 yil 2 dekabrda №2476508-sonli muvofiqlik sertifikatini, Jalalquduk tuman sanitar epidemiologik osoyishtalik nazorat markazining 2020 yil 3 noyabrdagi №298521-sonli ma’lumotnomasi). Natijada “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmasini “Oltin vodiy tabiati” MChJ da ishlab chiqarish hamda qandli diabet kasalligini davolashda foydalanish imkonini bergan.

“Shifo” va “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha quyidagicha: 1212 30 150 6 va 1212 30 150 7 kod raqami ishlab chiqilgan hamda davlat bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024 yil 18 oktabrdagi №17/05-24-0002-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mazkur turdagi moddalarni eksport va import qilishda ulardan undiriladigan boj to‘lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta halqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 10 ta ilmiy maqola respublika miqyosidagi va 2 ta ilmiy maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, jadval, rasm va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va ahamiyati, ushbu ishga talab asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, mazkur tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va uning amaliy natijalari o'z ifodasini topgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tovarlar kimyosi hamda xalq tabobati fanlarini paydo bo'lishi va rivojlanishi nomli birinchi bobda qandli diabetning kelib chiqish mexanizmlari, dalachoy, do'landa, igir, suli, kashnich xususiyatlari va ishlatilishi hamda sintetik dori vositalari bilan davolash yo'llari haqida zamonaviy ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot obyektlarida olib borilgan tajribalar metodlari va usullari nomli ikkinchi bobda oldinga qo'yilgan maqsad va belgilangan vazifalarga ko'ra tadqiqotda qo'llanilgan material va metodlarning umumiy tavsifi batafsil yoritib berilgan. "As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi o'simlik ekstraktlarining antioksidantlik, antiradikallik faolliklari, suvda eruvchi vitaminlar, miko va makro elementlar, flavonoidlar, aminokislotalarni aniqlash metodlari va usullari keltirilgan. Kalamushlarda eksperimental tadqiqotlar "Tajriba va boshqa ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan umurtqali hayvonlarni muhofaza qilish Yevropa konvensiyasi"ga (Strasburg, 1985) muvofiq biorganik kimyo instituti markaziy laboratoriyasida o'tkazildi. Tajribalar 120 ta oddiy laboratoriya ratsionida yashovchi 180-220 gramm og'irlikdagi oq, zotsiz kalamushlarda o'tkazilgan. Maqsadga erishish uchun 70 ta oq kalamushlarga 130 mg/kg dozada alloksan me'da ichiga kiritilish yo'li bilan qandli diabet holati modellashtirildi. Qolgan 10 ta kalamushlar intakt guruhni tashkil qilishdi. Qandli diabet modeli shakllanganligini qonda glyukoza miqdorining ortishi, tana massasining pasayishi, suv iste'moli, diurezning ortishi va hayvonlar umumiy holati nazorat qilinish orqali tasdiqlandi. Hayvonlar o'limi kuzatilmadi. So'ng eksperimental kalamushlar 6 ta guruhga ajratildi: I guruh – intakt. II guruh –130 mg/kg alloksanli qandli diabet modellashtirilgan kalamushlar. III-guruh –14 kun davomida 100 mg/kg "Shifo" OOQ bilan davolangan kalamushlar. IV-guruh – 14 kun davomida 100 mg/kg "As-GAM" OOQ bilan davolangan kalamushlar. V guruh –50 mg/kg Metformin sintetik preparati bilan davolangan kalamushlar. Tadqiqotning tegishli kunlarida

kalamushlar harorati 0°-+2°C sovuq xonada dekapitatsiya qilindi. Dekapitatsiya qilingandan so'ng hayvonlarning qoni yig'ildi, qon zardobi ajratib olindi. Hayvonlarni so'yish jarayonida kesib olingan me'da osti bezi va jigar formalinning 10 % li fosfat buferli neytral eritmasida saqlanadi.

Morfologik tekshiruvlar respublika Patologik Anatomiya markazida olib borildi. Gistologik preparatlar gematoksilin-eozin va Nissl bo'yoqlarida bo'yaldi va yorug'lik mikroskopi ostida o'rganilib, kerakli sohalari rasimga tushirildi. Olingan natijalar statistik qayta ishlash va rasmlarni chizish OriginPro 7,5 (Microsoft, USA) tahlil amaliy dasturlari paketi asosida ishlab chiqildi. Tajribaning 15 kuni barcha guruh kalamushlari qon zardobida biokimyoviy ko'rsatkichlar: glyukoza, triglitseridlar(TG), xolesterin, umumiy oqsil, alaninaminotransferaza (ALT), aspartataminotransferaza(AST), zichligi past lipoprotein (ZPL), zichligi yuqori lipoprotein (ZYuL)lar miqdori immunoferment tahlil usulida "Human" (Germaniya) firmasining "Eliza" test to'plami yordamida aniqlandi. Bemorlarda klinik tadqiqotlar Andijon viloyati endokrinologiya dispanserida olib borildi.

Tadqiqotning natijalari **"As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi dalachoy, do'lana, igir, suli va kashnich o'simliklari ekstraktlarining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari tadqiqot natijalari nomli 3-bobda** bayon qilingan. *"As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalari o'simlik ekstraktlari tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori bo'limida "As-GAM" va "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalari o'simlik ekstraktlari tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlarni aniqlash natijalari keltirilgan (1-jadval).*

1-jadval.

"As-GAM" oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibiga o'simlik ekstraktlarining suvda eruvchi vitaminlar miqdori

Vitaminlar	Igir	Do'lana	Dalachoy
	Konsentratsiya mg/gr		
B ₁	0,1243	0,02765	0,1117
B ₂	1,0785	2,044631	2,1114
B ₆	1,1595	0,130479	0,4431
B ₉	0,485	0,727459	12,842
B ₃	0,075	0,005033	0,0805
C	0,0886	0,009592	0,127

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "As-GAM" oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibiga kiruvchi dalachoy ekstraktini igir va do'lanaga nisbatan suvda eruvchi vitaminlar miqdori sezilarli yuqori ekanligi aniqlandi. "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmalarisi tarkibida esa vitamin B₁ - 0,1117 mkg/gr; B₂ - 2,1114 mkg/gr, vitamin B₃ - 0,0805 mkg/gr; vitamin B₆ - 0,4431 mkg/gr; vitamin B₉ - 12,842 mkg/gr va vitamin C - 0,127 mkg/gr miqdorda uchrashi aniqlandi. Suli, kashnich urug'i va dalachoy guli tarkibida suvdv eruvchi vitaminlar turni nisbatlarda uchraydi. Jumladan, suli ekstrakti tarkibida vitamin B₂ miqdori boshqa vitaminlarga qaraganda sezilarli yuqori bo'lib, 17,69 mg/gr ni tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda vitamin B₆, B₁ va C vitamini uchraydi. B₉ va B₃ vitaminlari suli ekstrakti tarkibida topilmadi. Vitamin

B₂ miqdori vitamin B₆, B₁ va C vitaminlaridan mos ravishda 7,89; 40,2 va 55,3 marta yuqori.

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalari o‘simlik ekstraktlari tarkibidagi flavanoidlar miqdori bo‘limida “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi dalachoy o‘simligi tarkibida flavonoidlardan kvvertsetin miqdori eng yuqori bo‘lib, 9,21 mg/gr va umumiy flavanoidlarning 52,9 % ini tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda digidrokvertsetin, rutin, lyuteonin va kam miqdorda gall kislotasi uchrashi aniqlandi va ular umumiy flavanoidlarning mos ravishda 30,8 %; 13,3 %; 2,93 % va 0,09 % qismini tashkil qiladi. Ammo dalachoy tarkibida flavanoidlardan sinarozid va salidroqid aniqlanmadi. Do‘lana tarkibidagi flavonoidlarni aniqlaganimizda boshqa flavonoidlarga nisbatan digidrokvertsetin miqdori eng ko‘p miqdorda uchrab, 2,24 mg/gr va tarkibidagi umumiy flavonoidlarning 74,9 % miqdorini tashkil etadi. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, digidrokvertsetin miqdori kvvertsetinga nisbatan 4,3 marta, rutinga nisbatan 3,57 marta yuqori ekanligi aniqlandi. Ammo do‘lana tarkibida flavonoidlardan lyuteonin, sinarozid va salidroqidlar aniqlanmadi. Igir tarkibida flavonoidlardan eng ko‘p miqdorda salidroqid bo‘lib, uning miqdori 6,25 mg/gr va umumiy flavonoidlarning 54,87 % ulushini tashkil qilishini aniqlandi. Keyingi o‘rinlarda esa rutin, lyuteonin, sinarozid, digidrokvertsetin va kvvertsetin flavanoidlari bo‘lib, ularning miqdorlari mos ravishda umumiy flavonoidlarning 19,3 %; 10,3 %; 8,87 %; 4,65 % va 2 % ini tashkil qilishi qayd etildi (2-jadval).

“Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibiga kiruvchi dalachoy o‘simligi guli tarkibida flavonoidlardan rutin miqdori eng yuqori bo‘lib, 53,4 mg/gr va umumiy flavonoidlarning 57,07% ini tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda salidroqid, digidrokvertsetin, lyuteonin, kvvertsetin va kam miqdorda rozavin bo‘lib, ular umumiy flavonoidlarning mos ravishda 17,6 %; 13,4 %; 9,83 %; 1,5 % va 0,5 4% qismini tashkil qiladi.

Boshqa o‘simliklardan farqli ravishda suli doni tarkibida boshqa flavonoidlarga nisbatan rozavin miqdori eng ko‘p miqdorda uchrab, umumiy flavonoidlarning 35,8 % miqdorini tashkil etadi. Miqdori bo‘yicha keyingi o‘rinlarni rutin, salidroqid, lyuteonin va digidrokvertsetin egalladi. Ammo suli doni tarkibida flavonoidlardan kvvertsetin aniqlanmadi (3-jadval).

2-jadval

“As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmasi o‘simlik ekstraktlari tarkibidagi flavanoidlar miqdori

Flavonoidlar	Igir	Dalachoy	Do‘lana
	Konsentratsiya, mg/gr		
Digidrokvertsetin	0,53	5,36	2,24
Lyuteonin	1,17	0,51	-
Rutin	2,2	2,31	0,4
Kvertsetin	0,23	9,21	0,35
Gall kislotasi	-	0,016	-
Sinarozid	1,01	-	-
Salidroqid	6,25	-	-

“Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmasi o‘simlik ekstraktlari tarkibidagi flavanoidlar miqdori

Flavonoidlar	Suli	Kashnich	Dalachoy
	Konsentratsiya, mg/gr		
Digidrokversetin	0,41	9,63	12,55
Lyuteonin	2,17	0,59	9,2
Rutin	6,18	11,87	53,4
Kversetin	0	0,65	1,4
Rozavin	6,44	0	0,51
Salidrozd	2,81	18,44	16,5

Kashnich urug‘i tarkibidagi flavonoidlarni aniqlaganimizda boshqa flavonoidlarga nisbatan salidrozd miqdori eng ko‘p miqdorda uchrab, umumiy flavonoidlarning 44,8% miqdorini tashkil etadi. Salidrozd miqdori rutinga nisbatan 1,55 marta, digidrokversetinga nisbatan 1,9 marta, kversetinga nisbatan 28,36 marta va lyuteoninga nisbatan 31,25 marta yuqori ekanligi aniqlandi. Ammo kashnich urug‘i tarkibida flavonoidlardan rozavin aniqlanmadi (3-jadval).

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalarining o‘simlik ekstraktlari tarkibidagi mikro- va makroelementlar miqdori bo‘limida “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmasi o‘rganilganda, makroelementlar Na, Mg, Ca va P miqdori igir va do‘lanaga nisbatan dalachoy poya va barglari ekstraktida eng ko‘p miqdorda bo‘lishi aniqlandi. Igir ildizida esa K, Na, Mg, Ca, P miqdori do‘lanaga nisbatan ko‘p miqdorda bo‘lishi; hamda K dalachoy ekstraktiga nisbatan ham ko‘p miqdorda namoyon bo‘ldi.

Mikroelementlar tarkibi o‘rganilganda, igir, do‘lana va dalachoy ekstraktlarida Fe, Al, Mn, Zn, Sr, Ba, Cu, B, Ti elementlarining boshqa mikroelementlarga nisbatan sezilarli miqdorda ko‘p bo‘lishi aniqlandi. “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmasi o‘rganilganda, makroelementlar K, Na, Mg, Ca va P miqdori suli va dalachoyga nisbatan kashnich urug‘i ekstraktida eng ko‘p miqdorda bo‘lishi aniqlandi. Suli donida esa K, Na, Mg, Ca miqdori dalachoy va kashnichga nisbatan kam miqdorda bo‘lishi; dalachoy poya va bargi ekstraktida esa P miqdori suli hamda kashnichga nisbatan kam miqdorda namoyon bo‘ldi. Mikroelementlar tarkibi o‘rganilganda, suli, kashnich va dalachoy ekstraktlarida Al, Fe, Mn, Zn, Sr, Ba, Cu, B, Ti elementlarining boshqa mikroelementlarga nisbatan sezilarli miqdorda ko‘p bo‘lishi aniqlandi.

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalarining o‘simlik ekstraktlari tarkibidagi aminokislotalar miqdori bo‘limida “As-GAM” OOOsi tarkibidagi do‘lana mevasi ekstraktida eng ko‘p uchraydigan aminokislota alanin, dalachoyda eng ko‘p uchraydigan aminokislotalar sistein, izoleytsin va serin ekanligi aniqlandi. Igir ildizi ekstraktida aminokislotalar do‘lana va dalachoyga nisbatan 1,14 va 1,28 marta ko‘p bo‘lishi aniqlandi. Uning tarkibida eng ko‘p uchraydigan aminokislota tirozinligi isbotlandi. Olingan natijalarga ko‘ra, suli doni ekstraktida eng ko‘p uchraydigan aminokislotalar gistidin va sistein, kashnich urug‘ida eng ko‘p uchraydigan aminokislotalar sistein va gistidin bo‘lib, ular umumiy aminokislotalar miqdorining 22,5 % va 20,7 % qismini tashkil etadi. Dalachoy guli ekstraktida

aminokislotalar suli va kashnich urug'iga nisbatan 1,66 va 1,28 marta ko'p bo'lishi aniqlandi. Uning tarkibida eng ko'p uchraydigan aminokislotalar prolin va gistidin bo'lib, umumiy aminokislotalarning 24,7 % va 20,4 % i ushbu aminokislotalarning ulushiga to'g'ri keladi (4,5-jadvallar).

4-jadval

“As-GAM” oziq-ovqat qo'shilmasi o'simliklari ekstraktlarining aminokislotalar miqdori

Aminokislotalar nomi	Do'lana	Igir	Dalachoy
	Konsentratsiya mg/100gr		
Asparatat	0.25	0.07	0.09
Glutamat	0.67	0.23	0.35
Serin	1.27	1.02	1.15
Glitsin	0.19	0.16	0.17
Asparagin	0.37	0.41	0.45
Glutamin	0.23	0.99	0.72
Sistein	1.55	1.68	1.50
Treonin	0.37	0.14	0.20
Arginin	0.29	0.16	0.18
Alanin	2.13	0.28	0.42
Prolin	0.63	1.72	0.74
Tirozin	0.32	2.92	0.98
Valin	0.19	0.41	0.43
Metionin	0.25	0.22	0.26
Gistidin	0.21	0.40	0.52
Izoleytsin	1.33	1.31	1.20
Leytsin	0.58	0.58	0.46
Triptofan	0.07	0.05	0.09
Fenilalanin	0.07	0.04	0.04
Lizin	0.21	0.02	0.02
Umumiy	11,18	12,81	9,97


5-jadval


“Shifo” oziq-ovqat qo'shilmasi o'simliklari ekstraktlarining aminokislotalar miqdori

Aminokislotalar nomi	Do'lana	Igir	Dalachoy
	Konsentratsiya mg/100gr		
Asparatat	0.10	0.30	0.10
Glutamat	0.28	0.40	0.40
Serin	0.86	1.03	0.62
Glitsin	0.37	0.84	0.44
Asparagin	0.74	1.74	0.73
Glutamin	0.23	1.56	2.98
Sistein	4.06	4.98	2.57
Treonin	0.37	0.59	0.77
Arginin	0.48	0.36	0.28
Alanin	0.24	0.68	0.74

Prolin	1.80	0.92	6.98
Tirozin	0.80	0.37	0.74
Valin	0.63	0.31	1.26
Metionin	0.16	0.99	1.61
Gistidin	4.29	4.57	5.77
Izoleytsin	0.19	0.27	0.60
Leytsin	0.63	0.80	0.60
Triptofan	0.26	0.69	0.62
Fenilalanin	0.12	0.22	0.29
Lizin	0.43	0.47	0.12
Umumiy	17,04	22,09	28,22


“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi o‘simlik ekstraktlarining antioksidant faolliklari bo‘limida “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi 3 xil o‘simlikdan 10 xil namuna tayyorlanib, turli nisbatlarda suvli ekstrakt tayyorlandi va bu ekstraktlarning antioksidant faolligi aniqlandi. “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmasi o‘simlik ekstraktlarining antioksidant faolligini o‘rganish natijalariga ko‘ra, 1-namuna uchun antioksidant faollik 20,6 %; 2-namuna uchun 24,65 %; 3-namuna uchun 24,78 %; 4-namuna uchun 19,18 %; 5-namuna uchun 21,62 %; 6-namuna uchun 27,4 %; 7-namuna uchun 26,48 %; 8-namuna uchun 21,70 %; 9-namuna uchun 21,70 % va 10-namuna uchun 25,42 % ni tashkil etdi. Namunalar orasida Igir+Dalachoy+Do‘lana (15:70:15) 6-namunaning boshqa namunalarga nisbatan yuqori antioksidant faollikni hamda kislorod faol shakllarining kamayishtirishini namoyon qilganligi sababli, ushbu namuna asosida “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmasi tayyorlanadi (1-rasm.)





1-rasm. “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi o‘simlik ekstraktlarining antioksidant faolliklari.


“Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmasi o‘simlik ekstraktlarining antioksidant faolligini o‘rganish natijalariga ko‘ra, 1-namuna uchun antioksidant faollik 11,75 %; 2-namuna uchun 10,11 %; 3-namuna uchun 21,71 %; 4-namuna uchun 24,69 %; 5-namuna uchun 26,03 %; 6-namuna uchun 21,57 %; 7-namuna uchun 23,68 %; 8-namuna uchun 25,33 %; 9-namuna uchun 24,64 % va 10-namuna uchun 27,75 % ni tashkil etdi. Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, 5-namuna (Suli+Kashnich urug‘i+Dalachoy guli 15:15:70) qolgan namunalarga nisbatan eng yuqori antioksidantlikni namoyon qildi.




2-rasm. “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi o‘simlik ekstraktlarining antioksidant faolliklari.

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi o‘simlik ekstraktlarining antiradikallik faolliklari bo‘limida dastlab “As-GAM” oziq-ovqat

qo‘shilmasi tarkibiga kiruvchi o‘simliklar antiradikal faolligi tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 30 daqiqa mobaynida qolgan DFPG ning konsentratsiyasi 1-namuna uchun 0,11; 2-namuna uchun 0,12; 3-namuna uchun 0,21; 4-namuna uchun 0,2; 5-namuna uchun 0,13; 6-namuna uchun 0,11; 7-namuna uchun 0,04; 8-namuna uchun 0,2; 9-namuna uchun 0,09 va 10-namuna uchun 0,1 ni tashkil etdi. Olingan eksperimental natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, 4-namuna (Igir+Dalachoy+Do‘lana 25:25:50) erkin radikal DFPGga nisbatan eng yuqori antiradikal faollikka va erkin radikallarni organizmdan chiqarib tashlash uchun eng yuqori qobiliyatga ega. “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmasi tadqiqot natijalariga ko‘ra, 30 daqiqa mobaynida qolgan DFPG ning konsentratsiyasi 1-namuna uchun 0,09; 2-namuna uchun 0,12; 3-namuna uchun 0,21; 4-namuna uchun 0,2; 5-namuna uchun 0,13; 6-namuna uchun 0,11; 7-namuna uchun 0,04; 8-namuna uchun 0,09; 9-namuna uchun 0,09 va 10-namuna uchun 0,07 ni tashkil etdi. Suli+kashnich urug‘i+dalachoy guli ekstraktlari antiradikal faolligini aniqlash tadqiqot natijalariga ko‘ra eng yuqori antiradikal faollik 4-namuna (Suli+Kashnich+Dalachoy 25:25:50) uchun xos bo‘ldi.





3-rasm. “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi o‘simlik ekstraktlarining antiradikal faolliklari.

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shimalarining zaharlilik ko‘rsatkichlari va qandli diabetda biokimyoviy va morfologik o‘zgarishlarga samarali ta‘sirini o‘rganish (eksperimental va klinik tadqiqot) nomli to‘rtinchi bobning “As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shimasining o‘tkir zaharlilik ko‘rsatkichlari nomli bo‘limida “Shifo” va “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shimlari o‘tkir zaharlash xususiyati sichqonlarda o‘rganilganda bu namuna VI – zaharsiz birikmalar sinfiga mansub ekanligi aniqlandi va oshqozonga bir marotaba kiritilganda, o‘rtacha o‘lim dozasi (LD₅₀) – 5000 mg/kg dan yuqori ekanligi aniqlandi(6-jadval).

6-jadval

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shimalarining sichqonlarda o‘tkir zaharlash ko‘rsatkichlari, n=6

Guruhlar	Hayvon turi, jinsi	Doza mg/kg, ml	Guruhdag i hayvon/ o‘lgan hayvon soni	O‘rtacha hayvon massasi (g) (1 kun)	O‘rtacha hayvon massasi (g) (7 kun)	O‘rtacha hayvon massasi (g) (14 kun)	LD ₅₀ ishonch oralig‘i bilan
“Shifo”	Sichqon erkagi	1000	6/0	21	23	25	>5000 mg/kg
		2000	6/0	21	23	26	
		5000	6/0	20	22	24	

As-GAM	1000	6/0	21	22	24	
	2000	6/0	20	23	25	
	5000	6/0	21	23	25	
Nazorat	0,5 MJI	6/0	20	23	25	-

“As-GAM” va “Shifo” oziq-ovqat qo‘shilmalarining eksperimental qandli diabetda biokimyoviy ko‘rsatkichlarga ta‘siri bo‘limida “Shifo”, “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmalari alloksanli qandli diabet modelida kalamushlar qon zardobidagi biokimyoviy ko‘rsatkichlarga ta‘sirini o‘rganish natijalari berilgan. Natijalarga ko‘ra umumiy oqsil, glyukoza, xolesterin, ALT, AsT, TG, ZYuLP va ZPLP lar miqdorini intakt guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan yaqinlashtirdi va qiyosiy preparat metformindan samarali ta‘sir etdi. Bundan xulosa shuki, ushbu oziq-ovqat qo‘shilmalari qandli diabetga chalingan hayvonlarning qon zardobidagi biokimyoviy o‘zgarishlarni yaxshilaganini ko‘rish mumkin(7-jadval).

7-jadval

Alloksanli diabet modelida “Shifo” va “As-GAM” oziq-ovqat qo‘shilmalarining kalamushlar qon zardobidagi biokimyoviy ko‘rsatkichlariga ta‘siri, (M±m; n=6)

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar				
	Интaкт	Intakt nazorat (allok.+suv) 130 mg/kg	Alloksan + “Shifo” 100 mg/kg	Alloksan +As-GAM 100 mg/kg	alloksan+metformin 50 mg/kg
Umumiy oqsil, g/l	69,0±3,2	60,8±1,4*	67,9±5,7	63,5±3,1	62,5±1,7
Glyukoza, mmol/l	4,4±0,5	6,8±0,7	4,67±0,4*	5,47±0,2	5,30±0,2*
ALT, mmol/l	70,0±7,9	112,5±6,5	84,0±6,5*	94,9±9,3	108,5±9,0
AST, mmol/l	67,0±7,4	102,5±8,2	82,3±6,2	87,5±7,1	100,5±9,1
Umumiy xolesterin, mmol/l	1,42±0,15	2,5±0,24	1,60±0,17	1,62±0,35	1,62±0,7
Triglitslerid, mg/dl	1,06±0,11	2,7±0,15	1,11±0,14**	1,3±0,18***	1,7±0,1***
ZYuLP	1,07±0,04	0,9±0,05	1,07±0,07*	1,06±0,05***	1,05±0,08***
ZPLP	1,05±0,02	1,53±0,04	1,22±0,07*	1,28±0,06*	1,25±0,07*

Eslatma: *r<0,05; **r<0,01; *** r<0,005 - nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonarli farqlar;

Olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, alloksanli qandli diabet modelida umumiy oqsil miqdori intakt guruhga nisbatan statistik ishonarli farq bilan kamaydi (*r<0,05). Tajriba guruhlarida ya‘ni “Shifo”, “As-GAM” qo‘shilmalarining 100 mg/kg dozalari va metforminning terapevtik 50 mg/kg dozasi kiritilgan hayvonlar


guruhida bu ko'rsatkichlar mos ravishda nazorat guruhiga nisbatan 11,7 %; 4,44 % va 2,8 % ga ortdi, lekin statistik ishonarli bo'lmadi. Glyukoza miqdori nazorat guruhida intakt guruhiga nisbatan 1,5-marta ortgan bo'lsa, "Shifo", "As-GAM" oziq-ovqat qo'shilmasi va metformin preparatida glyukoza miqdori mos ravishda nazorat guruhiga nisbatan 1,45; 1,24 va 1,28-marta kamaydi, "Shifo" oziq-ovqat qo'shilmasi va metformin preparatida nazoratdan statistik ishonarli farqlarga erishdi ($r < 0,05$; $r < 0,05$). "As-GAM" oziq-ovqat qo'shilmasida glyukoza miqdori nazorat guruhidan pasayishga tomon intildi, lekin statistik farq aniqlanmadi. Tajriba guruhlarida ALT miqdori o'rganilganda, davolanmagan kalamushlar guruhida intakt guruhga nisbatan 1,6-martaga yuqori bo'ldi. "Shifo" ning 100 mg/kg dozasi kiritilgan hayvonlar guruhida ALT miqdori davolanmagan guruhga nisbatan 1,34-martaga va statistik ishonarli kamaydi ($r < 0,05$). "As-GAM" va metformin kiritilgan hayvonlar guruhida esa bu mos ravishda 1,19 va 1,04-martaga kamaydi, lekin statistik farqlar aniqlanmadi. AST miqdori o'rganilganda, "Shifo" va "As-GAM" birikmalarining 100 mg/kg dozalarida davolanmagan guruhga nisbatan 1,25 va 1,17-martaga kamaydi. Metformin kiritilgan kalamushlar guruhida esa AST miqdori davolanmagan guruhi ko'rsatkichlariga yaqin ko'rsatkichni namoyon qildi.

